



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

TARIX FAKUL‘TETI

“MILLIY g‘OYA VA MA‘NAVIYAT ASOSLARI” KAFEDRASI

“Milliy g‘oya , ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi” yo‘nalishi

302-guruh talabasi Egamberdiyeva Shaxnozaning

AXLOQ – MA‘NAVIYATNING O‘ZAGI

mavzusidagi

REFERAT



Ilmiy rahbar: _____ U.Ravshanov
Kafedra mudiri _____ M.Sobirova

TOSHKENT 2015

REJA

KIRISH

I. BOB. MA'NAVIYAT VA AXLOQ INSON HAYOTIDAGI O'RNI

- 1.1. Ma'naviyat va axloq - inson hayotining ma'nosi**
- 1.2. Axloqning ma'naviyat tizimidagi birlashtiruvchilik ahamiyati**

II. BOB. MA'NAVIY BARKAMOL INSON, YUKSAK AXLOQIYLIK TUSHUNCHALARI

- 2.1. Ma'naviyatning tarkibiy jihatlari va unda ahloqning o'rni**
- 2.2. Yuksak ahloqiylikni shakllantirishda ta'lim oldidagi vazifalar**

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. Ushbu kurs ishida jahon axloq ilmining rivoji va unda turli mintaqa xalqlari ma'naviy-axloqiy qarashlarining akslanishi, ma'naviyat va axloqning o'zaro munosabatlari va ularning jamiyat hayotidagi ahamiyati inson hayotining mazmuni va baxt muammosi, bugungi mustaqil O'zbekistonda millatning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi, qonunlarga to'liq rioya etish, mamlakat qonunlarini yaxshi bilish talab etiladi, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasining dolzarb masalalari O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning ushbu muammolarga yondoshuvdagi yangicha qarashlari asosida jiddiy tadqiq etiladi. Mazkur ishning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

Birinchidan, jamiyatda insonlarning barcha ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalaridagi faoliyati uning yuksak ma'naviy yetukligi bilan belgilanadi, tartibga solinadi.

Ikkinchidan, kishilik tarixi uning madaniyati tarixi bilan belgilanadi. Har bir jamiyat o'zining olib borgan urushlari, jangu-jadallari bilan emas, madaniyati, insoniyat madaniyatiga, ilm-fani rivojiga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi.

Uchinchidan, kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida yoshlar ma'nan yetuk, yuksak barkamol avlod qilib tarbiyalash muhim vazifalar hisoblanadi.

To'rtinchidan, o'zligini anglagan, ma'naviy yetuk xalq jamiyat oldida turgan muhim islohotlarga, vaziflarga doimo tayyor turadi.

Kurs ishining maqsadi. Axloq – ma'naviyatning o'zagi ekanligini yoritib berish.

Kurs ishining vazifasi. Kurs ishi oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan: - ma'naviyat va axloq - inson hayotining ma'nosini tahlil etish;
- axloqning ma'naviyat tizimidagi birlashtiruvchilik ahamiyati ma'nosini tahlil etish;
- ma'naviyatning tarkibiy jihatlar va unda ahloqning o'rni masalasini tahlil etish;
- yuksak ahloqiylikni shakllantirishda ta'lim oldidagi vazifalarini tahlil etish;

Yosh avlod ma'naviy-axloqiy tarbiyasida mumtoz milliy san'at va adabiyotimiz, jahon madaniyati va san'atining yuksak namunalaridan unumli foydalanish shakl va usullari, ma'naviy-axloqiy tarbiyada oila va jamiyat munosabatlari, oila, mahalla, ta'lim tizimining millat ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi ahamiyatiga oid eng dolzarb masalalarni tadqiq etish va tavsiyalar berish.

I. BOB. MA'NAVIYAT VA AXLOQ INSON HAYOTIDAGI O'RNI.

1.1. Ma'naviyat va axloq - inson hayotining ma'nosi.

Ma'lumki, inson va jamiyat hayoti uch asosiy soha – iqtisod, siyosat va ma'naviyat yo'nalishlarining murakkab chatishuvidan tashkil topadi. Shu paytgacha jahon ilmida iqtisod va siyosat yo'nalishlari chuqur o'rganilgani holda ma'naviyat sohasi alohida yaxlit voqelik sifatida yetarlicha tadqiq etilmadi va alohida fan sifatida shakllanmadi. Shu sababli bu sohaning nazariy muammolari odatda o'zaro bog'lanmagan, chala-yarim holda “Axloqshunoslik”, “Falsafa(shunoslik)”, “Ruhshunoslik”, “Jamiyatshunoslik”, “Tarbiyashunoslik”, “Dinshunoslik” kabi qator ijtimoiy fanlarning mavzu doirasiga aralashib ketdi va ilmiy doiralarda yaxlit muammolar tizimi sifatida tasavvur qilinmadi. Nomi tilga olingan fanlarning ko'pchiligi Yevropa ilmida uzoq vaqt falsafa sohasiga oid hisoblanib, turli falsafiy oqimlar tomonidan Borliq haqiqati turlicha talqin qilingani tufayli bu fanlarning muammolari yuzasidan ham turli yo'nalishlarda turlicha yechimlar taklif qilindi. Jumladan, axloqning ma'naviy asoslariga munosabatda ham xilma-xil yondoshuvlar vujudga keldi.

Aslida ma'naviyat – botiniy (ichki) hodisa bo'lib, axloq – shaxs ma'naviyatining boshqa insonlar bilan munosabatida namoyon bo'lishi, ya'ni ma'naviyatga nisbatan zohiriy (tashqi) hodisadir.

Ma'naviyatni ko'pincha “ma'no” so'zi bilan bog'laydilar. Bu besabab emas. Faqat “qaysi “ma'no”? degan savol qo'yish kerak. Ma'naviyat har qanday “*ma'no*” bilan emas, balki “inson hayotining ma'nosi” masalasi bilan bog'liqdir. Fikr yurituvchi har bir inson bir kun emas, bir kun albatta o'z hayotining ma'no-mazmuni, mohiyati haqida o'ylab qoladi. Bu yorug' dunyoda yashashdan maqsad nima? Degani savolni o'ziga o'zi beradi. “Bu yorug' olamda biz kimmiz va ne bir sir-sinoatimiz, qayoqqa qarab ketayapmiz?” deb o'z-o'ziga savol beradi Prezident Islom Karimov “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” kitobida. Darhaqiqat, inson hayotining ma'nosi bormi, u nega yaratilgan o'zi?

Buyuk mutafakkir alloma, shayx Najmiddin Kubroning iste'dodli shogirdlaridan Najmiddin Doya (Abu Bakr Abdulloh Asadiy Roziy) o'zining 1223 yilda yozilgan «Mirsod ul-ibod min-al-mabda' ilal-maod» («Alloh bandalarining boshlang'ichdan tugallanishgacha bo'lgan hayot yo'li») asarida ushbu savolga javob sifatida bir ruboiy keltiradi.

Alloh insonni ikki jahonda azizu mukarram qilib yaratdi. Butun moddiy olamni unga bo'ysundirdi. Inson vujudidan maqsad esa uning ko'ngil ko'zgusidir. Chunki bu ko'zgu Borliq haqiqatini – Haq jamolini o'zida aks ettirish qobiliyatiga ega. Bu tabarrukg'oya turli tarzda, turli ko'rinish-ifodalarda ko'pchilik ulug' allomalarimiz ijodida o'z aksini topgan. Ular yo'q joydan paydo bo'lmagan. Oxirgi va bizgacha mukammal yetib kelgan ilohiy vahiy bo'lmish Qur'oni karimning «Nur» surasi 35-oyati “Allohu nur us-samovoti va-l-arz»(Alloh osmonlar va yerning “nuridir”) deb boshlanadi va davomida « Alloh o'zining (bu) nuriga o'zi xohlagan kishilarni hidoyat qilur» (Yahdi-l-lohu li-nurihi man yashau) deb ta'kid etiladi.¹

Ma'lumki, inson mukammal mavjudot emas. Vaqti kelsa, u eng quturgan hayvondan badtar vahshiylashishi yoki eng razil maxluqdan ham battar tubanlashuvi mumkin. Ammo Alloh hikmati shundaki, begunoh farishtalar emas, ayni Odam nasli yer yuzida xalifa qilib yaratilgan. Alloh taolo Odam Atoni yaratishni iroda etar ekan, farishtalarga “Men yerda xalifa yaratmoqchiman,”-deydi (Baqara surasi, 30-oyat). Qur'oni karimda insonning yer yuzida xalifa qilib yaratilganligi haqidagi xabar yana qator suralarda zikr etiladi. “

Ajdodlarimiz merosida surat va ma'no, majoz va haqiqat haqida so'z boradi. “Surat”va “majoz” tushunchalari bu o'rinda foniy dunyoni, jumladan, inson vujudini, “ma'no” va “haqiqat” esa boqiylikni, Borliqning boqiy mohiyatini ifodalash uchun ishlatiladi. Demak, inson ma'naviyati uning baqoga daxldorligini, ushbu foniy xilqatda aks etishi mumkin bo'lgan boqiy haqiqatni, xullas, fanoda baqoning namoyon bo'lishini anglatadi.

¹ Куръони карим. Т., 2001. (Иқтибослар Абдулазиз Мансур таржимаси асосида берилди. Фақат баъзи махсус эслатилган ўринларда ушбу таржимадан четга чиқилди.)

Har bir insonga Alloh taolo o'ziga yarasha xulq ato etgan. Har bir inson o'ziga xos tabiati, xulqi bilan tug'iladi. Uning axloqiy fazilat va qusurlari ayni shu tabiatan ato etilgan xislatlarning ma'naviyat nuridan qanchalik bahramand bo'lishiga qarab shakllanadi. Materialistlar inson axloqining qanday yo'nalishda shakllanishini atrof-muhitning ta'siri, ijtimoiy sharoitning soz-nosozligi bilan bog'lamoqchi bo'lishadi. Ammo insonda ichki faollik bor, iroda bor – u xoh yaxshilikka yo'nalgan bo'lsin, xoh yomonlikka. Inson o'z imon-e'tiqodi, ilmi, mas'uliyat hissi, dilidagi mehr tuyg'usi kimga qaratilganligidan kelib chiqib, atrof-muhitga, o'zgalarga munosabatini shakllantiradi. Shu sababli ayni bir muhit, ayni bir sharoitda turli insonlar turlicha munosabat namoyon qiladilar. Sodda qilib aytsak, inson o'z hayotining ma'nosini nimada ko'rsa, o'zgalar bilan munosabatida, ya'ni axloqida shu botiniy mohiyatini qandaydir bir tarzda namoyon etadi. Fuqarolik mas'uliyati nima? degan savolga eng umumiy tarzda ijtimoiy hayotni takomillashtirish jarayonida ishtirok etish vazifasi deb javob berdik.

Endi ushbu masalani mufassalroq ko'rib chiqaylik.

Avvalo, qaysi kasbda bo'lmasin rizqini halol topib yeyish harakatida bo'lmagan odam ijtimoiy hayotni takomillashtirish emas, uni buzishga, izdan chiqarishga "hissa" qo'shadi. Shu sababli ham halol rizq topish shaxs ma'naviyatining ham, fuqarolik mas'uliyatining ham poydevorini tashkil etadi.

Ikkinchidan, qonunlarga to'liq rioya etish. Buning uchun, avvalo, mamlakat qonunlarini yaxshi bilish talab etiladi. O'zi qonunga rioya etishni lozim bilmagan odam boshqalardan adolat umid qilishga haqlimi? Aslini olganda, "men bugun qonunlarga rioya qilsam, ertaga birvarakay hamma narsa yaxshi bo'lib ketadi", deb o'ylash voqelikni juda jo'n tushunish bo'lar edi. Ammo bir narsa aniq: agar har bir fuqaro "faqat men qonunga rioya qilishim shartmi, avval boshqalardan bo'lsin", deb mulohaza yuritsa, yurtda hech qachon barqarorlik, ijtimoiy xavfsizlik, balki, umuman, oddiy yashash imkoni ham bo'lmaydi. Jamiyatda aksariyat ko'pchilik qonunlarga rioya qilgan joydagina muayyan rivojlanish, takomil umidi bo'lishi mumkin.

Ba'zan, zohiriy nazarda, qonunga so'zsiz rioya etish shaxsiy va oilaviy manfaatlarga zid ko'rinishi mumkin. Shu asosda ba'zi "dialektik tafakkur muxlislari" shaxs va jamiyat manfaatlari orasidagi ziddiyatlar muammosini olg'a surishadi. Asli bunday yondoshuv mutlaqo noo'rin va beasos. Chunki jamiyat manfaatlarga zid bo'lgan har qanday xatti-harakat asl mohiyatida har bir alohida shaxs manfaatiga ham zid bo'lib chiqadi va, bil'aks, har bir shaxs manfaatlarga zid narsa oxir-oqibat jamiyat manfaatlarga ham ziddir. "Ayshni nodon surib, kulfatni dono tortadur", degan mashhur satrlar fozil shahar qonuniyatlari emas, johil shahar boshboshdoqligi asosida yashovchi jamiyatga taalluqlidir. Nodon odamgina men qonunga rioya qilsam zarar ko'raman, deb mulohaza qilishi mumkin. Chunki nodon odamning eng asosiy xislati boshqalarni o'zidan ko'ra ahmoqroq deb o'ylashida namoyon bo'ladi. U men boshqalarni aldab, o'z ishimni bitirib keta olaman, deb xayol qiladi. Johil jamiyatda ikki nodon birlashib, qolganlarni aldab ketish rejasini tuzishadi. Qolganlarning ko'pchiligi ularning ishi bitganini ko'rib, o'zlarining to'g'ri xatti-harakatlarini "nodonlik" va qonun buzuvchilarning jinoyatini "ishbilarmonlik", deb o'ylay boshlashsa, tez kunda "johil shahar" razolat va badbaxtlik shahriga aylanadi. Bunday jamiyatda barcha badbaxt va ojiz bo'lib, bir-birini ayblashdan boshi chiqmaydi, bu bilan ish o'nglanish o'rniga battar xaroblashadi.

Sovet davlatida kommunistik ideologiyaning total hukmronligi sababli amalda 250 mln. aholi ustidan yakka bir shaxs - KPSS bosh sekretarining mutlaq hokimligi vujudga kelgan bo'lib, adolat tarozusi faqat o'sha lavozimni egallagan odamning qo'lida hisoblanardi. U qanday hukm qilsa, shu - oxirgi va mutlaq haqiqat deb qabul qilinishidan o'zga chora yo'q edi. Shu sababli hamma jabr ko'rganlar yoki biror imtiyozdan umidvor bo'lganlar KPSS Markaziy Komitetiga, shaxsan bosh kotib Falonchievga murojaat qilish uchun intilar edilar. Bu buyuk alloma nazaridagi "adashganlar shahri"ning yaqqol namunasidir. Oxiri borib bunday "adashganlar shahri" ham razolat va badbaxtlar shahriga aylanishi va halokatga yuz tutishi amalda o'z tarixiy isbotini topdi.

Aslida adolat har bir insonning qalbida bo'ladi. Har bir fuqaro avvalo adolatni o'z ko'nglidan axtarishi kerak. Agar jamiyatdagi har bir adolatsizlik sababini qidirgan fuqaro birinchi navbatda o'z vijdoniga, qalbiga murojaat qilsa, o'zi duch kelgan adolatsizlik ildizini avvalo o'zidan qidirsas, adolatni qaror toptirish uchun kurashni o'z kamchiliklarini tuzatishdan boshlash lozim deb hisoblasa - fuqaro mas'uliyati ayni shu daqiqadan uning ruhida uyg'ongan bo'ladi.

Qonunga rioya qilish bu yo'ldagi dastlabki qadamdir. Tan olish kerak, xalqimizning ko'pchiligida fozil shahar aholisining dastlabki ikki muhim sifati - halol rizq topish uchun intilish va qonunlarga rioya etish, ulardan bosh tovlamaslik xislatlari mavjud. Bular shu darajada muhim fazilatlar-ki, jamiyat barqarorligi, millat hamjihatligi, davlat xavfsizligi ko'p jihatdan shu ikki xislatning jamiyat a'zolari xatti-harakatida ustivorligi bilan bog'liqdir. Ammo bu darajada to'xtab qolish fozil jamiyat uchun yetarli emas. Jamiyat hayoti faqat adolat asosida qurilishi mumkin. Boshqacha holatda jamiyat ilojsiz halokatga mahkum. Ammo adolat masalasida ajab bir muammo mavjud. Yuzaki qaraganda hamma adolat tarafdori, adolatsizlikka barcha qarshi. Shunday ekan, nega jamiyatda adolatsizlik yuz beradi? Masalaning bir nozik jihati bor. Adolat tarozusi har bir insonning barcha fazilat va nuqsonlarini, iste'dod va kamchiliklarini aniq "vaznini" belgilab, o'shanga yarasha har bir shaxsning ijtimoiy qiymatini o'lchaydi va baholaydi. Yana buning ustiga unga mavjud yutuq va kamchiliklariga yarasha ajrini ajratib beradi. Ya'ni faqat insonga ma'naviy baho beribgina qo'ya qolmay, unga umumijtimoiy moddiy ne'matlardan ham o'z "vazniga" yarasha ulush belgilaydi. Bunda shaxsning o'zi o'ziga bergan bahosi emas, jamiyatga yetkazgan nafi hisobga olinadi. Ana shu yerda zohiriy ziddiyat yuzaga chiqadi. Johil odam har vaqt o'zini eng oqil, eng iste'dodli, umumijtimoiy boylikdan eng katta hissaga haqdor, deb biladi. Bunga hozirgi zamon ijtimoiy tafakkurida keng urf bo'lgan qator tushunchalar mohiyatini tushunib-tushunmayg'aliz talqin qilish oqibatlarini ham ba'zan ta'sir ko'rsatadi. Masalan, "gumanizm" va "ijtimoiy adolat" tushunchalarini boqimandalik kayfiyatlarida, "demokratiya"ni shaxsiy mas'uliyatsizlikka bahona sifatida o'z foydasiga burib safsatabozlikka

aylantirishga urinish holatlari, "e'tiqod" tuyg'usidan aqidaparastlik ruhidagi da'volar uchun foydalanish, qon-qarindoshlik mehrini o'zgalar zarariga suiste'mol qilish harakatlari jamiyatda u yoki bu darajada kuzatiladigan holatlar bo'lib, bunday tamoyillarning avj olishi jamiyatni ayni "johillar shahri"ga aylantiruvchi omildir.

Har bir inson o'z xos tabiati yo'nalishida iste'dod egasi qilib yaratilgan. Agar u o'zligini anglashga urinsa, o'ziga eng muvofiq iste'dod yo'nalishini albatta topadi. Faqat jamiyat muayyan aqidani zo'rlik bilan unga singitishga urinmasa bo'ldi. Buning uchun mustaqil O'zbekiston asosiy qonunida aniq kafolatlar belgilangan. Biror bir diniy yoxud falsafiy aqida asosida O'zbekiston fuqarolariga muayyan imtiyoz yoki cheklashlar joriy qilinishi mumkin emas.

Inson o'zligini qancha barvaqtroq anglab yetsa, jamiyatda shuncha tez o'z haqiqiy o'rnini topib oladi va hayotini to'g'ri izga sola biladi. Buning uchun ota-ona, jamiyatdagi mutasaddi shaxslar ko'maklashuvlari tabiiy. Barcha maxluqotning taqdiri Alloh taolo irodasidan tashqari emas. Ammo inson yer yuzidagi gunoh va savoblari uchun Yaratgan oldida mas'ul ekan, demak, sinov maydoni bo'lmish bu yorug' dunyoda muayyan ma'noda o'z taqdirini o'zi belgilaydi. Insonning iroda erkinligi shu yerda. Agar jamiyatda o'z o'rnini vaqtida to'g'ri belgilay olsa, bu dunyosini ham, u dunyosini ham obod qiladi, agar o'z taqdiriga bepisandlik bilan yondoshsa, o'zini har ikki dunyoda xarob qiladi. Milliy ma'naviyatimizning xos fazilatlaridan bo'lmish Allohga tavakkul esa hayot mashaqqatlarini sabr-bardosh bilan yengib o'tishga hozirlikni bildiradi, faoliyatsizlikni, fikriy tanballikni emas.

Har bir inson baxtga intiladi. Buning ustiga ertaga emas, shu bugundan boshlab baxtli yashashni xohlaydi. Bu istagiga dabdurustdan erisha olmagach, aybdor qidiradi. Ana shunda uning oldida ikki yo'l namoyon bo'ladi: biri boshiga tushgan hayot sinovlari uchun kimni bo'lmasin birovni aybdor deb bilish, ya'ni aybni o'zidan tashqaridan qidirish; ikkinchisi. ishlari yurishmayotganlik sabablarini o'z kamchiliklaridan deb bilib, sabr-toqat va matonat bilan ularni tuzatishga, hayotini yaxshi tomonga o'nglashga o'zini safarbar etish.

Ma'lumki, birinchi yo'l oxir natijada faqat vaziyatni murakkablashtirishga olib keladi, ikkinchi yo'lgina insonni ijobiy yutuqlarni qo'lga kiritishiga sabab bo'lishi mumkin. To'g'ri ba'zi odam urush-janjall bilan ham bir narsalarga erishaman deb o'ylaydi. Ammo bu yo'l bilan qo'lga kiritilgan birgina "yutuq" o'z orqasidan ming kasofatu kulfatni boshlab kelishi hech gap emas. Chunki yomonlik yo'lidan yaxshilikka erishib bo'ladi deb tasavvur etish, o'ta xavfli va halokatli xom xayoldir. Inqilob yo'li bilan go'yo "katta yutuq"larni qo'lga kiritgan bolsheviklar oxir natijada o'zlari bir-birlarini qirib bitirdilar va bashariyat boshiga ham ne kulfatlarni keltirdilar. Shunday ekan, har kim jamiyatni kamchiliklardan xalos etmoqchi bo'lsa, avval o'z aybu xatolarini o'nglashdan boshlasin, jamiyat kamolotini orzu qilsa, o'z ma'naviy kamoloti yo'lida jiddu jahd ko'rsatsin. Chunki jamiyat shaxslardan tashkil topadi va ushbu shaxslarning ma'naviy qiyofasi umumjamoaning ma'naviy holatini belgilaydi.

Albatta, bu qoida juda umumiy va jo'n ko'rinadi. Hayot esa murakkab. Hayotda o'zi hech harakat qilmay, faqat birovlarini ayblab o'tiraveradigan odam deyarli uchramaydi. Odamlar bor - o'ta harakatchan, boshqalarning aybu xatosini ko'rsatish barobarida o'zlari ham jamiyatga naf yetkazish uchun muayyan ijobiy ishlarni bajarib boradilar. Boshqa bir toifa ko'p ham o'zgalarni ayblamaydi, o'z hayotiy qiyinchiliklariga ko'proq o'zini sababchi deb biladi, ammo baribir o'rgangan hayot tarzini keskin o'zgartirmaydi, na tashqi sharoitni, na o'z ahvolini o'nglash uchun faol harakatga kirishmaydi. Orada yana necha toifa bor. Biroq shu narsa aniqki, ta'sir aks ta'sir ko'rsatadi, xayrixohlik yaxshilikka eltadi, dushmanlik kurashni kuchaytiradi. Kurash esa buzg'unchilikdir. Albatta shahar markazida bir beo'xshov imorat husnbuzardek turib qolgan bo'lsa, uni buzib tashlab o'rniga yaxshi bir bino tiklagimiz keladi. Ammo buzishga kirishishdan ilgari obdon o'ylab, chamalab, kengashib ko'rmoq zarar qilmaydi, balki ozgina ta'mir bilan shu imoratning o'ziga husn kiritish mumkindir.

Demak, jamiyat taraqqiyoti va inson kamoloti jarayonida ma'naviyatning barcha qirralari o'zaro bog'liq holda shakllanadi va rivojlanadi. Axloq va odob inson hayotga qadam qo'yayotgan dastlabki davrdanoq shakllanib, uning komil

inson bo'lishiga zamin yaratuvchi ichki ruhiy omil bo'ladi. Ma'naviy kamolotga intilayotgan yoshlarni baxtli bo'lishi uchun tarbiya, muayyon axloq va odob normalarini, bilim va ilmlarni egallashi, mehnat qilishi, kasb-hunar sohibi bo'lishi, o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon etishi zarur bo'ladi. Insonlarda baxt haqida tasavvur bo'lishi uchun yuqoridagi fikrlarni ular qalbiga singdirish zarur. Hozir, ayniqsa yoshlarni ko'proq mustaqil hayotga tayyorlash uchun davlatda ko'p siyosatlar olib borilmoqda. Har bir ma'naviy kamolotida o'z millatining o'tmishi qanday rol o'ynasa, jamiyat rivojlanishida uning o'tmishga bo'lgan munosabati ham muhim ahamiyatga ega. O'tmish hayoti bilan bugungi kun o'rtasidagi dialektikani to'g'ri belgilash mamlakat istiqbolini oldindan ko'ra bilish va baxt haqida aniq tasavvurga ega bo'la olish imkonini beradi. Har qanday millatning ravnaqi, umumbashari tarixida tutgan o'rni, mavqei va shuhrati bevosita o'z yoshlarining aqliy va jismoniy yetukligiga ham bog'liqdir. Agar inson biror kasbni mukammal egallasa, mehnat unga huzur bag'ishlaydi, albatta baxt keltiradi. Ularga yaxshilikni singdirish kerak, ularga baxtni faqatgina shu kabi ezgu fazilatlar beradi.

Ma'naviy kamolot ustuvor bo'lgan hozirgi davrda yurt mustaqilligini ko'ra olmay, unga rahna solayotgan kuchlar ham mavjud. Ular faqat O'zbekistonga emas, butun jahon mamlakatlariga tahdid solmoqda. Shuning uchun Prezidentimiz O'zbekiston Fukarolarini jipslikka, yoshlarni esa ayni paytda hushyor va ogoh bo'lishga yana bir bor da'vat etadi. Yoshlarni aqidaparastlar yo'liga o'tmasligi va ularnig'oyalarini onggiga singdirmaslik uchun katta ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin baribir insonlar jamiyatimiz uchun yot bo'lgan aqidaparastlar oqimlari ta'siriga tushib, jinoyat ko'chasiga kirib qolmoqdalar. Ular o'z hayotida baxtsiz kunlar uchun zamin yaratishadi. Bunda bizning ma'naviy-axloqiy ishlarimiz tor doiralarda qolib ketgani, hayotning keng qatlamlariga kirib borolmayapti, shu sababli ham ayrim insonlarg'o'r, bilimli va dunyoqarashi cheklangan bo'lib, ularning ongiga yetib bormayapti. Natijada, ular bizga yot bo'lgan tashqi ta'sirlarga, buzg'unchig'oyalarga ko'r-ko'rona berilib, hatto o'z ota-onasiga, xalqi va Vataniga qo'l ko'taruvchi insonlarga aylanib qolmoqda. Bularda o'z baxti va farovon hayot haqida tasavvurlar ham yetarlicha emas. Buni shakllantirish hamda

rivojlantirish uchun ma'naviy kamolot bo'lishi kerak. Shunda ular yaxshi va yomon, oq va qorani ajratadilar.

Ayniqsa, yoshlarga ularning davlatning yosh fuqarosi sifatida uning Konstitutsiyasi va qonunlarini hurmat qilish va ularga bo'ysunish lozimligini uqtirish. Mustaqillikni qo'llab-quvvatlash va unga sadoqatli bo'lishi kerak. Ular baxtli bo'lishiga huquqlidir. Kelajak, dunyoviy davlat taqdiri yuksak ma'naviy komil insonlar qo'lidaligini unutmaslik zarur.

Inson ma'naviy yuksak kamolotga erishuv yo'lida harakat qilgandan bilimga ham harakat qilsa hech shubhasiz o'zi intilayotgan so'ngi darajadagi baxt va saodatga erishadi.

1. 2. Axloqning ma'naviyat tizimidagi birlashtiruvchilik ahamiyati.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin dastlabki o'rtaga tashlangan eng dolzarb muammolardan biri-ma'naviyat bo'ldi. Hozir ham bu muammo jamiyatimizning diqqat markazida. Zero ma'naviyatsizlikning har qanday jamiyatni tanazzulga olib borishi shak-shubhasizdir. Shu munosabat bilan, ma'naviyat o'zi nima-yu, u qanday kelib chiqqan, degan masalaga to'xtalib o'tmoq o'rinli. Bu masala esa bizni yana odamning paydo bo'lishi muammosiga murojaat etishimizni taqozo qiladi.

Tangri insonning jismini loydan – moddiy materialdan yaratgach, unga jon, ruh ato etdi. Endi inson ruh va vujudning yaxlitligi sifatida faqat ruhdangina iborat farishtalardan ulug'roq maqomga ega bo'ldi. Ruhning vazifasi – vujudni boshqarish. Demak, odamda moddiylikdan ko'ra ruhiylik-ma'naviylik mantiqan birlamchi. Buni inson sezgilarining «moddiylik» va «ma'naviylik» nisbatida ko'rish mumkin. Insondagi besh sezgidan faqat ikkitasi – biror moddiy narsaga tegib his etish va biror narsaning ta'mini bilish orqali his etishgina bevosita «moddiy sezish»ga taalluqli. Qolgan uch sezgi – ko'rish, eshitish, hid bilish esa muayyan moddiy narsaga tegmagan holda, «ma'naviy sezish» orqali u haqda tasavvurga ega bo'ladi. Buning ustiga avvalgi ikki sezgining biri inson jismoniy

kuchini qo'llashda – qurish, buzish, jismoniy boshqarishda, ikkinchisi inson vujudi uchun zarur bo'lgan moddalarni ovqat sifatida qabul qilishda zarur. Qolgan uch sezgi esa insonga go'zallikni ko'rish, uni xunuklikdan farqlashda, yoqimli tovush bilan yoqimsiz tovushni anglashda, xushbo'y hiddan badbo'ylikni ajratishda kerak. Har ikkala toifadagi sezgilar orqali ham inson rohatlanadi. Jismoniy mehnatdan olinadigan rohat va gastrologik lazzat –bir tomondan, go'zallikdan, yoqimli tovushdan, xushbo'ylikdan olinadigan lazzat – ikkinchi tomondan. Har ikkala toifa sezgilar «xizmat»ini fikr tarozusiga solib ko'radigan bo'lsak, buning ustiga «oltinchi sezgi» – aqlning mavjudligini hisobga olsak, «ma'naviy sezgilar» tosh bosib ketadi. Zero bu «qorin to'ydirmaydigan» sezgilar insonning oliy mavjudot ekanini anglatuvchi belgilardir. To'g'ri, inson qorin to'ydirishi kerak, lekin u qorin to'ydirish uchun yashamaydi, balki yashash uchun qorin to'ydiradi. Insoniy hayotning hayvoniy hayotdan farqi ham shunda.

Aytilganlardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, uch «ma'naviy sezgi» orqali olinadigan lazzat, inson hayotining mazmuni-maqсад, ikki «moddiy sezgi» esa ana shu maqsadni amalga oshirish yo'lida vosita. haqiqiy ma'naviy lazzatga erishish, tom ma'noda ma'naviyatli yashash uchun, tabiiyki, «vosita-sezgilar» ham pokiza, haromdan yiroq bo'lishi lozim. Zero nopok vositalar bilan erishilgan lazzat – ma'naviyat emas, u xuddi bir uyum go'ng ustida o'sgan atirgul kabi kishida afsus hissini uyg'otadi.

«Qorin falsafasi»ga asoslangan, insonni faqat qorni to'q, bir xilda fikrlovchi kommunistik jamoa a'zosi qilib tarbiyalashga uringan sho'rolar tuzumi materializmni – moddiyatchilikni ilohiylashtirish barobarida ma'naviyatga yetarli e'tibor bermadi, uni ikkinchi darajali unsur deb hisobladi. Bizning hozirgi erkin jamiyatimiz esa, moddiyatchilikning ahamiyatini inkor etmagan holda, ma'naviyatchilik yo'nalishini ustuvor sanab, insonni eng avvalo, ma'naviyatli shaxs, o'z fikriga, o'z so'ziga, o'z erkiga ega ma'naviy individ, qolaversa fuqarolik jamiyatining a'zosi ekanini, e'tirof etadi. Na faqat e'tirof etadi, balki ana shu yo'nalishda juda katta ishlarni amalga oshirishni asosiy vazifasi deb biladi.

Endi ma'naviyatning hayotda namoyon bo'lishi qanday ro'y beradi, u qanday sohalarini o'z ichiga oladi, degan savollarga e'tiborni qarataylik. Bu borada hozirgi paytda turli xil qarashlar, fikrlar mavjud. Zero ma'naviyat qamroviga kiradigan sohalar juda ko'p va xilma-xil. Shu bois faqat ularning eng asosiylari, ya'ni ma'naviyatning shohtomirlari bo'lmish unsur-sohalar haqidagina gapirish mumkin.

Ulardan biri va birinchisi – ezgulik; ikkinchisi – go'zallik; uchinchisi – e'tiqod, ya'ni ana shu ezgulik va go'zallikning tom ma'nodagi timsoli bo'lmish Yaratganga e'tiqod.

Mutlaq ezgulik egasi bo'lmish Yaratgan insonni ezgu ishlar qilish, ezgulikka ezgulik bilan javob berish uchun yaratdi. Zero Tangri insonni yaratib, buyuk ezgulik namunasini ko'rsatgan ekan, uning bandasi bo'lmish odamzot ham ezgulikka ezgulik bilan javob berishi kerak: Ollohni sevishi, faqat ezgu a'mollarga, yaxshilikka kamarbasta turishi, o'z qavmdoshlariga ham, atrof-muhitga ham ezgulik nuqtai nazaridan munosabatda bo'lishi shart. Ezgulik esa, bizga ma'lumki, axloqning, oqilona xatti-harakatlarning asosi, axloqshunoslikning mushtarak tushunchasidir. Demak, axloqiylik inson ma'naviyatining asosiy ustuni.

Mutlaq go'zallik sohibi bo'lmish Yaratgan insonni go'zal mavjudot, o'zidan keyingi ikkinchi go'zallik yaratuvchi zot qilib bunyod etdi. Ayni paytda odamzot Ollohning Yerdagi xalifasi sifatidagi Tangri in'om etgan atrof-muhitdagi go'zallikni, go'zal xulqni, go'zal a'mollarni asrashi, ardoqlashi lozim. Zero «Olloh go'zal va u go'zallikni sevadi». Ushbu hadisi sharif so'zlaridan shunday xulosa chiqarish mumkin: Ollohni sevgan bandasi albatta go'zal bo'lishi va go'zallikni sevishi shart. Aks holda u farishtalarga ham nasib etmagan xalifa degan sharaflilik nomga noloyiq. Go'zallik esa nozik hissiyotlarning, qalbni yumshatuvchi, mayinlashtiruvchi, insonga hilmlilik baxsh etuvchi, qalbni forig'lantiruvchi nozik hissiyotlarning asosi, nafosatshunoslikning mushtarak tushunchasidir. Demak, go'zallikka muhabbat ham ma'naviyatning asosiy ustunlaridan.

E'tiqodni esa, ezgulikka va go'zallikka muhabbatning, ularga iqtido qilishning eng oliy darajasi deyish mumkin. Uning eng mukammal ko'rinishi o'zini din shaklida namoyon etadi. Dinlar har xil bo'lishiga qaramay, muqaddas kitoblarning

mohiyati bir: inson mutlaq ezgulik va mutlaq go‘zallik sohibiga e’tiqod orqali komillikka erishadi. Zero, barcha dinlarning maqsadi komil insonni tarbiyalash. Shu bois ham Qur’oni karimda haqiqiy mo‘min barcha nozil qilingan kitoblarning muqaddasligini tan olishi shart, deya qayta-qayta ta’kidlanadi.

Demak, har bir inson o‘z hayotini ana shu uch asosga qursagina, ma’naviyatli hisoblanadi. Axloq, – ma’naviyat tizimida eng salmoqli o‘rinni egallaydi va undagi boshqa sohalar bilan mustahkam aloqada ish ko‘radi. Endi ana shu aloqalarning eng muhimlariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Avvalo, axloq bilan din masalasini olib qaraylik. Bu borada yana, yuqoridagi fikrlarga qo‘shimcha qilib, shuni aytish mumkinki, mohiyatan din inson hayotining axloqiyligini taqozo qiladi. Shu bois diniy-shar’iy tamoyillar va meyorlar, hadisi sharifdagi o‘gitlar axloq-odob qoidalari bilan chambarchas bog‘liq. Chunonchi, inson eng oliy qadriyat sifatida qat’iy muhofaza etiladi. Odam o‘ldirish mumkin emas, odam o‘ldirish eng ulkan axloqsizlik hisoblanadi. o‘g‘rilik, birovning haqini yeyish, munofiqlik, aldash, yolg‘on gapirish va shu kabi boshqa turli illatlar ham diniy-shar’iy, ham axloqiy nuqtai nazardan man etiladi. Aksincha, insonni e’zozlash, odamlarning bir-biriga ko‘makdosh bo‘lishi, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, halollik, rahmdillik, qavmdoshi qanday yuksak darajada bo‘lmasin, unga xushomad qilishdan tiyinish, faqat Yaratgangagina sig‘inish singari fazilatlar ayni paytda ham diniy taqvo, ham axloqiy talab tomonidan ma’qullangan xatti-harakatlardir. Shu bois axloqni dindan mustaqil, muxtor ma’naviy hodisa sifatida talqin etuvchi markscha-lenincha qarashlar mantiqiy va ilmiy asosga ega emas. Din, ta’kidlaganimizdek, insonni axloqiylashtirishning vositasi tarzida ish ko‘radi. Demak, diniy taqvo bilan axloqiy talabning ildizi bir. har ikki holatda ham vijdon ko‘zga ko‘rinmaydigan boshqaruvchi murvat sifatida namoyon bo‘ladi. Bu-botiniy ko‘rinish; zohiriy ko‘rinish esa shar’iy hukmlar va huquqiy qonunlarda o‘z aksini topadi.

Axloqiy talab huquqiy qonun-qoidalarda o‘z aksini topadi, deyish bilan biz axloq va huquqning mustahkam aloqaga ega ekanini tasdiqlab turibmiz. Zero aslida ham shunday. Muayyan jamiyatdagi huquqiy qonun-qoidalar o‘sha mintaq

xalqi tomonidan asrlar mobaynida ishlab chiqilgan axloqiy aqidalar, tamoyillar, meyorlar, shuningdek, nisbatan umumiylik xususiyatiga ega bo'lgan urf-odatlar zahirida vujudga keladi. Lekin ba'zi bir urf-odatlar, an'analar huquqiy meyorlar darajasiga ko'tarila olmasligi ham mumkin. Buning sababi, ularning, avvalo, nisbatan xususiy tabiatga ega bo'lganida, qolaversa, axloqiy va huquqiy taraqqiyot talablariga javob bera olmasligida. Masalan, johiliyat davrida arablarda qiz tug'ilsa, uni tiriklay ko'mib tashlash odati bo'lgan. Keyinchalik, musulmonlik yoyilganda, bu odatg'ayri musulmonlik odati sifatida rad etildi. Hozirga kelib, unday hodisa huquqiy qonunlar asosida jinoyat deb qaraladi. Yoki bizning mintaqada qadimda mavjud bo'lgan xun olish odati ham hozirda jinoyat sifatida jazoga loyiq hisoblanadi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, axloq bilan huquq, garchand, bir ildizga ega bo'lsa-da, ularning jamiyat axloqiy hayotini boshqaruv usuli har xil: axloq asosan tushuntirish, pand-o'gitlar vositasida ish ko'rsa, huquq majburiy usul, jazo choralari orqali ish olib boradi. Ayni paytda, shuni ham aytish kerakki, huquq axloqqa nisbatan ancha aniq va ancha muayyan ichki bo'linishlarga ega. Chunonchi, xalqaro huquq, fuqaro huquqi, jinoiy huquq, mehnat huquqi va h. k. nisbatan qat'iy chegaralangan huquqiy meyorlar mavjud. Axloq esa huquqqa nisbatan ancha keng qamrovli. Chunonchi, huquqiy qonunlar mavjud tuzumga, muayyan shaxs va yosh doirasidagi kishilarga tadbiq etilsa, axloqiy qoidalar, hikmatlar, pand-o'gitlar barcha tuzumlar hamda turli yoshdagi kishilarga taalluqli bo'ladi. Shuningdek, huquqiy meyorlar aniq adresni taqozo qiladi, axloqiy qoidalar esa mavhumligi va umumiyligi bilan ajralib turadi.

Axloqning siyosat bilan aloqasi ham nihoyatda qadimiy: ilk davlat yuzaga kelgandan buyon mavjud. Masalan, miloddan avvalgi XUIII asrda Bobilon podshosi Xammurapi tomonidan ishlab chiqilgan qonunlar majmui huquqiy hujjat bo'lsa-da, uning asosida axloqiy fazilat – adolatni barqaror etish yotadi. Zero Xammurapi bu qonunlarni mamlakatda haqiqat qilish, adolat o'rnatish, yetim-esirlar va beva-bechoralarga himmat, rahm-shafqat ko'rsatish maqsadida joriy etganini ta'kidlaydi.

Axloqshunoslik tarixida axloq bilan siyosatning munosabatlari borasida ikki xil qarash mavjudligini ko'rish mumkin. Ularning biriga ko'ra, siyosat axloqiy bo'lmog'i lozim, ikkinchisiga binoan esa siyosat axloq bilan sig'ishmaydi.

Birinchi qarash mohiyatan axloqni siyosatdan yuqori qo'yadi: siyosat axloqqa bo'ysundirilishi shart. Boshqacha qilib aytganda, maqsadlar va vositalar birligiga erishmoq lozim, ya'ni buyuk, pokiza ideallar faqat axloqiy pok vositalar orqali amalga oshirilmog'i kerak. Lekin bunda axloq siyosat vazifasini bajarmasligi lozim. Aks holda muayyan davlat institutlarining, xususan, huquq-tartibot va harbiy idoralar singari tashkilotlarning ishini ortiqcha darajada cheklab, ularni juda zaiflashtirib qo'yish mumkin.

Ikkinchi qarash esa, mohiyatan siyosatning axloq bilan hisoblashmasligini taqozo etadi. Bu qarash tarafdorlari axloqni siyosatga bo'ysundirishni, undan, kerak paytida, tamomila yuz o'girish lozimligini ta'kidlaydilar. Ular nazdida, axloq buyuk ideallarga erishuv yo'lidagi birg'ov, jamiyatni umuminsoniy qadriyatlar bilan o'ralashtirib qo'yadi, ko'ngli bo'shlikka, sustkashlikka, pirovard natijada bosh-boshdoqlikka olib keladi. Shu bois buyuk maqsadlarga tezroq erishish uchun har qanday vositadan foydalanish mumkin. Zero oxir-oqibat erishilgan maqsad yo'l qo'yilgan razilliklar, qattolliklar, aldovlar va firiblarni yuvib ketadi. Vaholanki, bu usul orqali faqat vaqtinchalikg'alabaga erishish mumkin. Oqibatda esa, bug'alaba na faqat yo'qqa chiqadi, balki mag'lubiyatga aylanadi. Misol tariqasida yana sho'rolar tuzumiga murojaat qilish mumkin. Zo'rlik, aldov va qatag'onlar bilan xalqni baxtli qilishga urinish, «xalq baxti» uchun millionlab odamlarning yostig'ini quritish evaziga erishilgang'alaba oxir-oqibatda buyuk mag'lubiyat sifatida nihoya topdi. Yuqorida keltirganimizdek, u ulug' maqsadlarni iflos vositalar bilan amalga oshirish o'sha maqsadlarning ham toza emasligini amalda isbotlaydi. Endilikda sobiq SHo'rolar Ittifoqi tarkibiga kirgan xalqlar axloqsiz siyosat tufayli jahondan ajralib qolgani, yolg'on, poraxo'rlik, ko'zbo'yamachilik bu mintaqalar uchun odatga aylanib ketgani hammaga ma'lum. Bu illatlardan tozarish, qutilish uchun yana necha o'n yillar kerak ekani ko'zga ko'rinib turgan reallikdir. Demak, siyosatda axloqdan ko'z yumish, uni

axloqiylashtirishda yuzaga keladigan ba'zi nuqsonlardan yuz bor, ming bor ko'p va fojeiydir. o'z siyosatini tubdan axloqiylashtirish – har bir zamonaviy davlatning hozirgi kundagi birlamchi vazifasi.

Axloq bilan san'atning o'z aro aloqalari haqida gap ketganda, eng avvalo, uni et bilan tirnoq tarzidagi yaqinlik ekanini ta'kidlamoq lozim. Chunki har bir haqiqiy san'at asarida asosiy ziddiyat sifatida ezgulik bilan yovuzlikning kurashi in'ikos etadi, insonparvarlik, haqiqatgo'ylik, to'g'rilik, adolat, muhabbat, sadoqat singari fazilatlar tarannum etiladi, taqdir, o'lim va o'lmaslik, hayotning mazmuni, baxtga erishish singari muammolar o'rta tashlanadi. Axloqiy ideal muammosi esa har bir badiiy asarning shohtomiri hisoblanadi. Masalan, Alisher Navoiyning Farhodi, Shirini, Shekspirning Romeosi, Julettasi, Oybekning Navoiysi mazkur mualliflar asarlaridagi axloqiy ideallardir. Ularsiz Navoiy, Shekspir va Oybek asarlarini tasavvur qilish mumkin emas.

Shunisi ham borki, ba'zi san'at asarlarida axloqiy idealga duch kelmaydi kishi, hatto biror bir ijobiy qahramonni ham uchratmaydi – asar boshdan-oyoq salbiy badiiy qiyofalar turish-turmushini aks ettirishga bag'ishlanadi. Bunday badiiy qiyofalarni muallif o'z zamonasi erishgan axloqiy daraja nuqtai nazaridan turib yaratadi. Misol tariqasida Bayronning «Beppo» dostonini, Gogolning «O'lik jonlar», Zavqiyning «Hajvi ahli rasta», Abdulla Qodiriyning «Kalvak maxzumning xotira daftaridan» asarlarini keltirish mumkin. Bu asarlarda axloqiy muammolar, yuksak axloqiylik masalasi avvalgi misollardagidek bevosita emas, balki bilvosita – satirik usul orqali o'rta tashlanadi.

Bundan tashqari, so'z san'atida, ta'bir joiz bo'lsa, o'ziga xos «axloqiy janrlar» mavjud. Ularni xalq og'zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham uchratish mumkin: maqol, matal xikmatlar, hikoyatlar, rivoyat, masal pandnoma v. h. shular jumlasidandir. Umuman olganda, axloqsiz badiiy asarning bo'lishi mumkin emas, barcha san'at asarlari uchun axloqiylik umumiy zamin ahamiyatiga ega.

Bundan tashqari san'at axloqshunoslik targ'ibotchisi, axloqiy tarbiyaning eng qulay vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Chunonchi, badiiy adabiyotning, kino san'ti, tasviriy san'at va teatr san'atining, ayniqsa, bu borada ahamiyati beqiyos.

Bu san'at turlari yoshlarda axloqiy idealning shakllantirishda katta xizmat qiladi. Chunonchi, «urush-urush» o'yinlarida bolalarning mard, jasoratli, matonatli, vatanparvar va halol amerikalik hindular sardoriga, Alpomishga, Go'ro'g'liga va boshqa xalq qahramaonlariga taqlidi fikrimizning dalilidir.

Axloqning fan bilan o'zaro aloqadorligi masalasi ham muhim. Ba'zi bir qarashlarga ko'ra, axloqning fanga aloqsi yo'q. Bunday qarashlarni to'g'ri deb bo'lmaydi. Zotan axloqshunoslik tadqiqot ob'ekti sifatidagi axloqning maqomiyoy uning fanga aloqadorligini ko'rsatib turadi.

Ayniqsa, axloqning ijtimoiy fanlar bilan aloqasi miqyoslidir. Chunonchi, ko'pgina ilmiy qarashlar, nazariyalar insonni bevosita yoki bilvosita yuksak axloq egasi, donishmand va halol inson bo'lishga chaqiradi.

Lekin, ayrim nazariyalar ham borki, ularni axloqsiz deb atash o'rinli. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, mashhur «Maltus nazariyasi». Ingiliz iqtisodiyot nazariyotchisi Maltus (1766-1834) ilgari surgang'oyaga ko'ra, aholi geometrik progressiyaga, iste'mol mahsulotlari arifmetik progressiyaga muvofiq rivojlanadi. Aholi o'sa borib, yer yuzida qashshoqlik, oziq-ovqat yetishmovchiligi vujudga keladi. Shu bois urushlar olib borish tabiiy hol sifatida o'zini oqlaydi. Maltus bu o'rinda urushni targ'ib etish bilan axloqsizlikning eng yuksak ko'rinishini namoyon etmoqda. Shuningdek, insoniyat jamiyatini qarama-qarshi sinflarga bo'lib tashlashni, hokimiyatni zo'ravonlik, qon to'kish terror orqali qo'lga kiritishni va shu yo'sinda tutib turishni targ'ib etuvchi markscha-lenincha sinfiylik hamda sotsialistik inqilob nazariyalari ham ilmdagi axloqsizlikning bo'rtib ko'zga tashlanadigan namunasidir.

Ma'lumki, barcha fanlar, xususan, tabiiy fanlar har biri o'z sohasida haqiqatning ayon bo'lishiga xizmat qiladi. Axloqning pirovard natijasi esa insonni haqiqatga olib borish, uni komil mavjudot qilib tarbiyalashdir. Ana shu nuqtada axloq va fan bilvosita munosabatga krishadi. Ayni paytda ilm-fanda erishilgan olamshumul yutuqlar insoniyat jamiyati oldiga yangi-yangi axloqiy vazifalar va muammolarni qo'yadi. Chunonchi, so'nggi paytlarda fan-texnika taraqqiyotining yuksak darajasi va ekologik buhronlarning yuzaga chiqishi sababli ekologik axloqshunoslik singari

axloq olamining yangi yo‘nalishlari vujudga keldi; noosferadan yoki boshqacha aytganda texnosferadan etosferaga – axloqiy muhitga o‘tish zarurati insoniyat jamiyati axloqiy madaniyati oldidagi eng dolzarb vazifa sifatida qo‘yilmoqda; zero bu vazifaning faqat axloqshunoslik doirasidagi muammogina emasligini, keng qamrovli ekanini, butun Yer yuzining bundan keyin mavjud bo‘lishi yoki bo‘lmasligi muammosiga aylanganini bugun yaqqol sezish mumkin.

Shu bois texnikaviy fanlar taraqqiyotining navbatdagi bosqichlari faqat axloq talablariga mos, ta’bir joiz bo‘lsa, axloqiy nazorat ositida amalga oshmog‘i lozim.

To‘g‘ri, ba’zilar bizga, fan – mutlaq ob’ektiv hodisa, u mohiyatan xolis, shunga ko‘ra, uni axloqqa bu qadar bo‘ysundirish nojoiz, deb e’tiroz bildirishlari ham mumkin. Biroq, fanni odamlar, turli hissiyot, ehtirolarga moyil, turli axloqiy fazilatlar, hatto illatlarga ega bo‘lgan kishilar yaratishini yodga olsak, bunday e’tirozlarning o‘zi nojoiz ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Zero har bir olimning ma’naviy-axloqiy holati, uning o‘z kashfiyotida qay darajadadir aks etmasligi mumkin emas. Xullas, fan ham bevosita, ham bilvosita axloq bilan bog‘liq va aynan shu bog‘liqlik tabiiy-texnikaviy fanlarni insoniylashtirish vazifasini bajaradi.

Axloq bilan mafkuraning aloqasi ham jamiyat hayotida juda katta ahamiyatga ega. Ma’lumki, har bir mafkura muayyang‘oyalar va qaras‘halr tizimidan iborat bo‘ladi. Rasmona mafkurani axloqiyg‘oyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Leking‘oya hech qachon o‘z-o‘zicha, shunchaki mavjud bo‘lmaydi. U albatta insonda in’ikos topadi va muayyanlashadi. Bu haqda Hegel o‘zining «Falsafiy bilimlar qomusi» asarida shunday deydi: «G‘oya haqida gapirganda, uni qandaydir olis va narigi tomondagi narsa tarzida tasavvur qilish kerak emas.g‘oya, aksincha, butunisicha shu yerda ishtirok etadi hamda, shunindek, har bir ongda, kam deganda, buzilgan va zaiflashgan hoda mavjud bo‘ladi». Demak, muayyang‘oyalarni, shu jumladan, axloqiyg‘oyalarni o‘zida mujassamlashtirgan kishilargina mafkurani yaratadilar va uni ommalashtiradilar.

Har bir demokratik davlat va jamiyatda bir necha mafkura mavjud bo‘lishi tabiiy. Lekin ular ichidan biri yetakchilik mavqeini egallaydi. Bu yetakchilik zinhor boshqa mafkuralarni inkor etmaydi va jamiyat a’zolari ko‘pchiligi irodasini

aks ettirishi bilan ajaralib turadi. Uni shuning uchun ham milliy mafkura deb atashadi. Erkin demokratik fuqorolik jamiyatini o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan bizning mamlakatimizda bu masalaga jiddiy e'tibor berilgan. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi birinchi bo'lim, birinchi bobning 12-moddasida shunday yozib qo'yilgan: «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Hech qaysi mafkura davlat mufkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas».

Demak, bizning davlat demokratiya tamoyillariga asoslangan holda, barcha mafkuralarning yashash huquqini ta'minlovchi institut sifatida ish ko'radi. Milliy mafkuramiz esa boshqa biror-bir mafkurani kamsitmasdan, ko'pchilik jamiyat a'zolarining ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-estetik g'oyalari tajassumi sifatida mamlakat va millat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Chunonchi, u, eng avvalo, yuksak axloqiylikka asoslangan. Milliy mafkuramiz jamiyatimizda vatanparvalik, millatparvarlik, ziyolilik tamoyillarini ustuvor bilib, har bir fuqoroni buyuk davlat yaratishda ishtirok etishga chorlaydi. Ayni paytda, umumbashariy ma'naviy qadryatlarni e'zozlashga, boshqa millatlar va elatlarga hurmat bilan qarashga chaqiradi, tenglar ichida teng bo'lish g'oyasini ilgari suradi. Bu mafkura xalqimiz ma'anviy mezonlariga, uning ezgulik va farovonlik haqidagi ideallariga, erksevarlik, tinchliksevarlik tamoyillariga mos keladi, shu sababli unga ehtiyoj bor.

Tarixdan axloqiylikni chetlab o'tishga yoki uni axloqsizlikka niqob qilib, axloqni soxtalashtirib umr ko'rishga uringan mafkuralar ham bizga ma'lum. Ular, odatda, muayyan davlatning yagona mafkurasi deb e'lon qilinadi va u millatga yolg'on vositasida singdirishga uriniladi. Olmoniyada hitlerchilar ilgari surgan milliy sotsializm mafkurasi yoki sobiq sho'rolar ittifoqidagi komunistik mafkura shular jumlasidandir. har ikkala mafkura ham o'zini tan olganlardan «mafkuraviy dushmanlar»ni jisman yo'qotishni talab etdi – eng buyuk axloqsizlikni axloqiylik sifatida targ'ib qildi. Lekin niqoblangan axloqsizlikning umri uzoq emas. Bu holatni buyuk rus shoiri Aleksandr Pushkin «Tiklanish» degan she'rida bag'oyat go'zal tasvirlagan:

Vahshiy rassom mudroq, beizn,
Daho suratini buzadi
Va u surat ustiga o‘zan
Beburd suratini chizadi.

Lekin u yot bo‘yoqlar bir-bir
Ko‘chib tushar yil sayin, ayon;
Va daho ijodi bequsur
Avvalgidek bo‘lur namoyon...

(Turob To‘la tarjimai)

Lenin, Stalin, Hitler singari «vahshiy rassomlar» chizgan suratlar – totalitar tuzumlar mafkuralari qismatini shu she’rda ko‘rish mumkin. Zero axloqiylik har qanday mafkura muvaffaqiyatining garovi hisoblanadi. Axloq bilan mafkura bir-biri bilan ana shunday uzviy bog‘liq.

Ma’naviyat tizimidagi ijtimoiy hodisalarning axloq bilan munosabatlarini mana shu qisqacha tarzda ko‘rib chiqishimizning o‘ziyoq bizda axloqning o‘rni haqida aniq tasavvur uyg‘otadi. Shu narsa ayonki, axloq mazkur ijtimoiy hodisalar markazida turadi. U nafaqat markaziy ijtimoiy hodisa, balki boshqa ijtimoiy hodisalarni xarakatlantiruvchi ma’naviy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Uni chetlab o‘tishga intilish har qanday mafkurani tanazzulga olib boradi, jamiyatni tom ma’nodagi ma’naviyatdan mahrum etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Prezident Islom Karimovning: «Aslini olganda, axloq – ma’naviyatning o‘zagi», degan so‘zlari yuqoridagi fikrlarimiz uchun tabiiy xulosa bo‘lib jaranglaydi. Darhaqiqat, axloq ma’naviyat tizimidagi eng ta’sirchan, eng baquvvat xalqa, usiz odamzot ma’naviyatini tasavvur qilish mumkin emas.

II.BOB. MA'NAVIY BARKAMOL INSON, YUKSAK AXLOQIYLIK TUSHUNCHALARI.

2.1. Ma'naviyatning tarkibiy jihatlari va unda ahloqning o'rni.

“Ma'naviyat” keng qamrovli hodisa. Ma'naviyatning moddiy voqelikdagi izlari madaniyat deyiladi. Madaniyat tarkibiga din, ilm-fan, axloq, san'at-adabiyot kabi voqeiy hodisalar kiradi. Shu ma'noda, axloq – madaniyatning tarkibiy qismidir. Shaxs ma'naviyatining asosiy jihatlari – imon, ilm, mas'uliyat, mehr deb ko'rsatgan edik. Bulardan imon-e'tiqod masalasi ko'proq din tarkibida ko'rilsa, ilmga intilish tuyg'usi ilm-fanda, mehr san'at va adabiyotda namoyon bo'ladi. Mas'uliyat tuyg'usi esa birinchi navbatda axloqqa tegishlidir. Shaxs ma'naviyati faqat imon-e'tiqod, ilmga intilish, mehr tuyg'usi bilan mukammallik kasb etmaydi, unda birinchi navbatda o'z imoni, ilmi, mehri oldida jiddiy mas'uliyat hissi ham bo'lishi kerak, busiz oldingilar hammasi bekor bo'lib qoladi. Ajdodlarimiz ezgu niyat, ezgu so'z, ezgu amal uyg'unligini ta'kidlashlari behuda emas edi. Shu ma'noda axloq shaxs ma'naviyatining amalda namoyon bo'lishidir. “Axloq –ma'naviyatning o'zagi” degan iboraning mohiyati ham shunda.

Ammo imonsiz kishi axloqli bo'ladimi? Imon ham turlicha bo'ladi – taqlidiy imon, tahliliy imon. Taqlidiy imon egasining ma'naviyati ham, axloqi ham o'ziga yarasha bo'ladi. Tahliliy imon egalari esa, afsuski, hayotda ko'p uchrayvermaydi. “O'zligingni anglab yet yoxud Axloqshunoslik” (Poznay samogo sebya ili Etika) asarining muallifi, xristian faylasufi va axloqshunosi Per Abelyar (1079-1142) diniy aqidalarni aqlga tayangan holda mantiqan tushunib yetib qabul qilishni yoqlab chiqqani uchun katolik cherkovi tomonidan uning ta'limoti qoralangan edi. Ilm va imon birlashmagan joyda aqidaparastlik va fanatizm avj olishi tarixda ko'p marta isbotlangan. Dilida samimiy mehr tuyg'usi bo'lmagan odamning ham yuksak axloq egasi deyish juda qiyin. Mehr-shafqat, hilm odamgarchilikning asosiy belgilaridan ekanligi azaldan ma'lum.

“Axloqshunoslik” fani inson xulqining yaxshilanish jarayonlari qanday kechishini tadqiq etadi, ya'ni turli xulqiy xislatlarning o'zaro nisbati, ularning

shaxs ma'naviy kamoloti bilan bog'liq ravishda qanday qilib axloqiy fazilatlarga aylanib borishi, axloqiy qusurlarning kelib chiqishi kabi masalalarni o'rganadi. Shundan kelib chiqib akademik Erkin Yusupov axloqni: "ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo'lgan insonlarning o'z-o'zini idora qilish shakllari va meyori, o'zaro muloqot va munosabatlarda ularga xos bo'lgan ma'naviy kamolot darajasining namoyon bo'lishidir" – deb ta'riflagan edi.

Axloq alohida insonning o'zgalarga munosabati sifatida siyosat sohasiga aloqadordir. Agar siyosatni keng ma'noda, har bir insonning o'zga insonlarga munosabati deb oladigan bo'lsak, bu soha shartli ravishda ikki qatlamdan iborat: huquq qatlami va axloq qatlami. Huquq qatlami qonunga tayanadi, axloq qatlami esa ma'naviy qadriyatlar asosida quriladi. Aksariyat holatlarda insonlar aro muomalalar axloqiy meyorlar asosida olib boriladi. Qachonki, kimdir yoki kimlardir axloqiy meyorlarni ochiqdan-ochiq va qo'pol ravishda buzsa, mensimasa, shundagina qonunlar ishga tushadi, axloqning jamoa qabul qilgan meyorlarini tan olmagan inson yoki insonlarni qonuniy asosda ko'pchilik qabul qilgan qoidalarga bo'ysunishga kuch ishlatib majbur qilinadi. Davlatning paydo bo'lishi va birinchi navbatdagi vazifasi ham ayni shunga, ya'ni ijtimoiy meyorlarni nazoratda tutib, jamiyat osoyishtaligini saqlashga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, har bir jamoada insonlar ma'naviyati qancha yuqori bo'lsa, davlatning kuch ishlatib osoyishtalikni saqlash ehtiyoji ham shuncha kam bo'ladi. Forobiy nazarda tutgan "fozil shahar aholisi" aslida aksar aholisi yuksak ma'naviyat va, demak, yuksak axloq egasi bo'lgan jamiyat bo'lib, zamonaviy tilda biz buni "fuqarolar jamyati" (grajdanskoe obshestvo) deb atamoqdamiz.

Vatanimiz azaldan bashariyat tafakkur xazinasiga unutilmas hissa qo'shib kelgan, asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyat, imon-e'tiqod, adolatparvarlik, ma'rifatsevarlik kabi ezgu fazilatlarni targ'ib etgan ma'naviy-axloqiy masalalarga oid asarlari, ularda ko'tarilgan chuqur falsafiy-tarbiyaviyg'oyalar bilan haqli ravishda faxrlansa arziydi.

Ammo o'tmishimiz qancha buyuk bo'lmasin, kelajagimizning ulug'vorligi millatning har bir a'zosi, O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi ushbu

kelajakda Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, inson baxti to'kis ta'minlanishi uchun qay darajada faollik ko'rsata bilishi va bu faolligining samaralari, unumi bilan belgilanadi. Buning uchun esa imon va ilm, iqtidor va iste'dod, iroda qudrati va maqsad yo'lida fidoiylilik, keng dunyoqarash va erkin fikr kerak. Agar qaysi millat o'ziga mansub har bir insonning barcha ichki imkoniyatlari, iste'dodi ro'yobga chiqishiga sharoit yaratmas ekan, har bir shaxsning tashabbusi qadr topmas ekan, har bir yosh qalbida bilimga, tafakkurga, faol yaratuvchilikka intilish ishtiyoqi alanga olmas ekan, millat kamoli, mamlakat qudratining yuksalishi haqidagi gaplar og'izda qolib keta beradi.

2.2. Yuksak ahloqiylikni shakllantirishda ta'lim oldidagi vazifalar.

Jamiyat taraqqiy etgani sari axloqiy munosabatlarga e'tiborni kuchaytirish ehtiyoji tug'ilayotir. Sababi biron mamlakat yoki jamiyat ma'naviy-ma'rifiy imkoniyatlarini rivojlantirmay, hamda mustahkamlamay turib, o'z kelajagini tasavvur eta olmaydi. Siyosatga ma'naviyat nuqtai nazaridan yondoshganda ikki muhim muammo birinchi navbatda ko'zga tashlanadi. Birinchisi - hokimiyat manbai masalasi, ikkinchisi - insonlar va ijtimoiy toifalarning jamiyatdagi o'zaro munosabati asoslari. Har ikki masala bir-biri bilan bevosita bog'liq va tutash, shu sababli ham ko'pgina allomalarimiz ularni birga olib qaranlar. Shu bilan birga ularning mustaqilligi ham doim sezilib turadi.

Biz birinchi masalani ko'rib chiqdik. Endi ikkinchisiga o'tsak. Insonlarning jamiyatdagi o'zaro munosabatlarida asosiy masala mavqe va maqom masalasi ekanligi aytili. Bu masaladagi bahsni hal qilish uchun xolis bir hakamga ehtiyoj tug'iladi. Ibtidoiy odamlarning katta bir oila shaklida birgalikda turmush kechirgan urug'-jamoasi a'zolari orasida ichki uyg'unlikni ta'minlash ko'p murakkab yumush emas edi. Hali Ashshurbanipal qonunlari yaratilguncha bo'lgan zamonlarda qabila boshlig'i yoki bosh kohin osonlik bilan oddiy jamoa a'zolari orasidagi muomalada muvozanatni ta'minlashi mumkin edi. Ibtidoiy jamoadan ilk shahar jamoasiga o'tish bilan insonlar orasidagi muomalalar ham murakkablashib, bora-bora pog'onadorlik kasb etib bordi. Jamiyat murakkablashgan sari uning

boshqaruv tizimi ham mukammallashib borishiga ehtiyoj oshadi. Ayni shu tizimdan davlat kelib chiqadi. Qadimgi davrda davlat boshlig'i mutlaq hukmdor bo'lib, faqat Tangri hukmlariga itoat qilardi. Bu tuzum asta-sekin rivojlanib, yurtni boshqarishni yengillashtiruvchi qonunlar shakllandi. Asta-sekin insonlar qonunlarga itoat etishni o'rgandi. Keyinchalik qonunlar umumiyligi imtiyozli toifalarga barham berish evaziga kuchayib borib, hukmdorning ham qudratini cheklovchi konstitutsion monarxiya (mashrutiya nizomi) paydo bo'ldi.

Va nihoyat bizning davrga kelib, islomiy tavhid ta'limotini siyosatga to'liq va mukammal joriy qiluvchi xalq hokimiyatchiligi tuzumi jahonda yetakchi mavqe egallay boshladi. Xalq hokimiyatchiligi tuzumida barcha fuqaro qonun oldida teng bo'lib, ularning o'zaro munosabatlarini qonunlar tartibga solib turadi. Bunday sharoitda davlat idorasining barcha darajalari o'z qonunlari bilan belgilangan vakolat doirasida faoliyat olib boradi. Xalq hokimiyatchiligining eng yuksak bosqichi fuqarolar jamiyati yoki Forobiy iborasi bilan aytganda «Fozil shahar», aniqrog'i, mukammal siyosiy madaniyatga erishgan jamiyat bo'ladi. Unda qonun ustivorligi yetakchi tamoyildir. Bunday jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish maqsadida barcha fuqarolar uchun huquq ta'limi joriy etiladi.

Agar jamiyatni bir shaxs (qirol, sulton, shoh) boshqarsa, u muayyan qonunlarga tayanib, muayyan shaxslarni mashvaratga jalb qilib, mustaqil qaror qabul qila beradi. Ammo xalq hokimiyatchiligida ijtimoiy adolat amalga qanday joriy qilinadi? Urug', jamoa, hatto ilk shahar-davlat hududida agar jamoaning umumiy yig'ini imkon doirasida (ilk shahar aholisi ko'pi bilan bir necha ming oiladan tashkil topgan) bo'lsa, hozirgi davrda hatto bir tuman (shahar tumani) aholisini ham bir yerga yig'ib bo'lmaydi. Demak, "xalq hokimiyati" aslida qonun hukmronligi ma'nosini ifoda etadi. Chunki bir mamlakatning millionlab fuqarosi birgalashib hokimiyatni idora etishi faqat puxta o'ylangan qonunlar asosida yuzaga chiqishi mumkin. Qirol va sultonlar davrida ham qonunlar bo'lgan. Ammo bu qonunlar mutlaq hukmdorning idora usulini yengillashtirish vazifasini bajargan. "Xalq hokimiyati" davrida esa davlat boshlig'ining faoliyati ham qonunlar orqali xalq tomonidan nazorat etiladi va yo'naltiriladi. Qonunlarni ishlab chiqish va qabul

qilish saylab qo'yilgan xalq vakillari uhdasida bo'ladi. Shu sababli demokratik tuzumning birinchi sharti qazovat(sud hokimiyati), ijro hokimiyati va qonun chiqaruvchi hokimiyatning bir-biridan mustaqilligi bo'lib chiqadi.

Bizning milliy ma'naviyatimizda huquq ilmi "fiqh" deyilgan va islom ta'limoti asosida O'rta asrlarda (ayniqsa, IX-XII asrlarda) nihoyatda yuksalib, rivoj olgan. Muhammad ash-Shaybondan Burhoniddin Marg'inoniygacha bo'lgan davrni islom mintaqasida fiqh ilmining "oltin davri" deb baholash mumkin. Ushbu davr oxirgi 70 yil davomida "sovet huquqshunosligi" tomonidan mutlaqo inkor etildi, ammo islom olami uchun bu qimmatli meros doimo dasturulamal bo'lib kelgan, bugun esa yana yangidan dolzarblik kasb etmoqda. Tan olish kerakki, islom mintaqasida doimo hokimiyat taqdimoti o'ziga xos tarzda amalda bo'lgan. Bunda ijroiya hokimiyati dunyoviy hukmdor va uning devoni qo'lida, sudlov ishlari shariat qozilari tasarrufida, mahalliy boshqaruv demokratik tamoyillarga asoslangan mahalla oqsoqollari va mahalla kengashi shaklida, qonun chiqarish esa faqih va muftiylar tomonidan amalga oshirilgan. Musulmon faqih va muftiylari Alloh va ulamolar oldida o'zini mas'ul sezgan, shoh va sultonlarga mutlaqo qaramligi bo'lmagan. Ular Allohning kalomi va payg'ambar hadislariga, buyuk allomalarning tadqiqotlariga, ray va qiyosga tayanganlar, ulamolar jamoasining umumiy nuqtai nazarini (ijmo') hisobga olib, mustaqil hukm chiqarganlar.

Yakka shaxs irodasining ustivorligidan qonun ustivorligi tomon moyillik kuchaygan sari siyosatda ma'naviyatning ahamiyati ham oshib boradi. Albatta, yakka shaxs adolatli bo'lishi, Alloh yo'lida, Haq yo'lida sobitlik ko'rsatishi ham mumkin va bunga tarixda misollar bor. Ammo alohida inson aqli ham, ma'naviy kamoloti ham mutlaq emas, noqisligidan kafolat yo'q. Demak, adolatni ta'minlashning eng ishonchli usuli - davr ruhiga muvofiq mukammal qonunlar ishlab chiqish va qonun ustivorligini ta'minlashdir.

Qonunlar xalq saylagan vakillar tomonidan ishlab chiqiladi va qabul qilinadi. Qonunlar tizimining yaratilishi va jamiyatni boshqarishdagi ularning alohida ahamiyati qonunshunoslik fani va shu soha mutaxassislariga ehtiyoj tug'diradi. Fuqarolik jamiyatida qonun asosan har bir shaxsning davlat va

jamiyatga nisbatan huquqlarini va o'z navbatida davlat organlarining har bir fuqaroga nisbatan huquqlarini belgilaydi. Huquq organlari har bir shaxsning qonun tomonidan berilgan huquqlarini himoya qiladi. Shu sababli qonunshunos mutaxassislar va huquq organlari xodimlari huquqshunos deb, fan esa huquqshunoslik deb atalib kelinmoqda. Yurist asli qonunshunosdir. Yurisprudentsiyani esa qonunshunoslik ilmi, deyish mumkin.

Ammo masalaning nozik tomonlari ham bor. Agar Alloh inoyat etsa, davlat rahbarining o'z maqomi oldidagi mas'uliyati va umumxalq ma'naviyatidagi ijobiy tamoyil o'zaro muvofiq kelib biror jamiyatda, jahondagi alohida bir davlatda bashariyat ma'naviy takomili darajasidagi qonun qabul qilinishi mumkin. Ammo uning voqe' hayotga tatbiq etilishi yana, baribir, mas'ul ijrochilarning ma'naviy salohiyati va millatning ongli faollik darajasiga bog'liq bo'lib qoladi. Shu sababli qonun mukammalligi bilan ijro muvofiqligi orasida anchagina muammolar, jumladan, ma'naviy tarbiyaga doir muammolar mavjud. Mukammal qonun qabul qilinishi uchun davlat rahbarining idroki va ma'lumoti, maslahatchilar donoligi va umumjahon ijobiy tajribasi mavjudligi yoniga umumxalq saylab qo'ygan vakillarning aksariyat xayrixohligi qo'shilsa kifoY. Ammo uni tushunib yetib, mohiyatiga muvofiq ijro etish uchun qo'shimcha bir qator omillar taqozo etiladi. Masalan, avvalo, qonun ijrochisi halol-pok inson bo'lishi, qolaversa, aqli, bilimi, salohiyati o'zi egallab turgan maqomga muvofiq bo'lishi, tabiatang'ayratli va shijoatli, tashabbuskor va hushyor bo'lmog'i lozim. Agar o'nta halol va uddaburro ijrochiga bitta landovur yoki tovlamachi to'g'ri kelib qolsa ham ish murakkablashadi. Oltita komil insonga to'rtta muttaham to'g'ri kelsa-chi? Unda jamiyatning ahvoli qanday kechadi?

Bunday noxush holatlarni bartaraf qilishning yagona yo'li xalq hokimiyatchiligi (demokratiya) va erkin fuqarolar jamiyatini shakllantirib borishdir. Avvalo, Alloh qo'llasin. Ammo "harakatda barakat", degan naql bejiz emas. Ezgulik yo'lidagi astoydil harakatni Alloh ham qo'llashiga umid bog'lasak, adashmaymiz.

Qisqasi, davlat siyosati ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: 1) yakka shaxs irodasi; 2) qonun hukmi. Ahli basharning siyosat sohasidagi takomili birinchi yo‘nalish yetakchiligidan ikkinchi yo‘nalish qudratining yuksalishi sari ketmoqda va shu sababli borgan sari huquq va qonunchilik sohasining ahamiyati oshib borishi kuzatilmoqda.

Bugungi kunda millatni nihoyatda umidvor qiladigan, quvontiradigan, ko‘ngilga ishonch bag‘ishlaydigan narsa - 1) Mustaqil Konstitutsiyamizning ushbu ma‘naviyatimiz quvvatiga javob bera oladigan darajada mukammal ekanligi, 2) Yurtboshimizning fikriy ko‘lami va dadilligi, 3) xalqimizning Mustaqil Vatan kelajagi yo‘lidagi buyuk jihod amalida bardosh va qat‘iyatidir.

Prezidentning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida...” kitobida yozilganidek, “shu ulug‘ maqsad yo‘lida turgan muammolar va tahdidlarni aniq tushunish jamiyatni birlashtiradi, jipslashtiradi, har bir kishiga o‘zining mas‘uliyatini, o‘z o‘lkasi, jonajon Vatanining tarixi va hayotidagi murakkab voqealarga daxldorligini puxta o‘ylash, yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.”²

² Каримов И.А. “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида...”, с.

XULOSA.

Ma'naviy va axloqiy, xukuqi tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo'lgani, bu yoshlarning o'z baxtini o'zi yaratishga astoydil harakat qilishi uchun katta xizmat qiladi. Oilada, avvalo, yuqorida aytilganidek, yoshlarni farovon va baxtli hayotini ta'minlash uchun ota-ona bolaga har tomonlama namuna bo'lishi kerak, chunki inson kamoloti oiladan boshlanadi. Keyingi bosqichlarda yoshlarni komil inson bo'lib tarbiyalanishi va baxtli hayotini ta'minlanishi maktabda va oliy o'quv yurtida ustozlarning ta'lim-tarbiya berish usullaridan tortib, to mayda, elementar hatti-harakatlarigacha o'z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna tarzida qabul qilishini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Demak, ustoz-shogird munosabatlaridagi muomala odobi, halollik, rostgo'ylik yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi shakllanishini ta'minlovchi omillardandir.

Hozirgi paytda baxtni ta'minlovchi ma'naviy-axloqiy, xuquqiy tarbiyaning eng kuchli zamonaviy vositasi sifatida televideniye keltirish mumkin. U deyarli barcha san'at turlarida yaratilgan badiiy asarlarni ekranlashtirish va ekranda ko'rsatish imkoniga ega. Bundan tashqari, unda maxsus axloqiy tarbiyaga bag'ishlangan muntazam ko'rsatuvlar ham berib boriladi. Milliylik ruhida tayyorlanadigan "Otalar so'zi-aqlning ko'zi", "Rivoyat", "Hidoyat sari" kabi ko'rsatuvlar fikrimizga dalil bo'ladi.

Insonlar hayotida axloqiy tarbiyaning aqliy-ma'naviy va jismoniy tarbiya bilan qo'shib olib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'shanda jamiyatimiz har jihatdan kamol topgan fuqarolik jamiyatiga aylanadi, shu bilan bir qatorda komillikka va barkamolikka intilayotgan insonlarda baxtli kelajakka poydevor qo'yiladi. Mamlakatimizda buning uchun barcha ijtimoiy va huquqiy shart-sharoitlar yaratilgan.

Jamiyat taraqqiyotini inson ma'naviy kamoloti bilan bog'lash va unga nisbatan intilish hamma tarixiy davrlarga ham xosdir. Yuqorida keltirilgan fikrlarga mutafakkirlarimizdan Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Navoiy va boshqalarni komil insonni tarbiyalash va ular baxt haqida berilgan o'oyalari ham jamiyat taraqqiyoti bilan birga yangi ma'naviy imkoniyatlar izlash maqsadlari bilan

bog'langan. Forobiy fozil shahar aholisi to'g'risida yozganida insonning ma'naviy kamolotini adolatli jamiyat qurishning asosiy sharti deb hisoblaydi. Komilikka intilayotgan insonlarda axloqiy tarbiyadan tashqari ma'rifatni o'rni alohidadir. Chunki ma'rifat esa ma'naviyatning mohiyatini, ahamiyatini o'rganish, uni targ'ib etish, ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar tizimidir. Har qanday sharoitda ham jamiyatning ma'naviy kamoloti, inson shaxsining shakllanishi ma'lum maqsadlar bilan bog'langan tadbirlar orqali amalga oshadi. Islom Karimov aytganidek "Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch-ma'rifatdir."³ Shu joyda quyidagi ma'lumotlarni keltirish joizdir: "Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashadi." Bu bilan shuni ta'kidlash kerak, insonlar hayotida ma'rifat juda katta ahamiyatga ega. Baxtni har bir inson o'z qarashlari bilan tushunar ekan, bilimli, insofli, diyonatli, vijdonli bo'lib, o'zi sevgan kasbni egallashi ham uni baxtni tushunishi va his etishiga yordam beradi.

Ma'naviyat va axloq insonlarni baxt haqidagi tasavvurlarini amalga oshirishida katta rol o'ynaydi. Yoshlar kelajak ustuni sanalar ekan, ularni bilimlik, kuchli va qudratli qilish uchun har bir tarbiyachi, ustoz hamda ota-onalar ma'suldirlar. Insonlarning baxtli bo'lishlari yuksak ma'naviyat va axloqiy qadriyatlar tizimiga bog'liqligini hisobga olish darkor. Inson o'zi yashab turgan ijtimoiy vaziyatni yaxshi tushunsa, yuksakg'oyalarga ega bo'lgan holda, o'z oldiga o'z baxtini yaratish va baxtni his etish uchun maqsadlar qo'ysa, ularni amalga oshirish uchun harakat qilsa ma'naviy yuksakligini amalda ko'rsatib beradi.

Bu xususida I.A.Karimov juda haq gapni aytganlar: "Inson uni inson darajasiga ko'taradigan asoslarning asosini o'z aqli bilan tom ma'nodqamrab olmaydi. Inson o'zini xalqning bir zarrasi deb sezgandagina, u hakida o'ylab, mehnat qilib yashagandagina ma'naviyat bilan tutashadi⁴."

³ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент, "Шарқ" матбаа нашриёти, 1998 йил, 7-бет

⁴ И.А.Каримов. "Ўзбекистон миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат." 81 бет.

Demak insonlar ezgu fazilatlarni egasi bo'lib, komillik darajasiga erishishi va baxtli bo'lishlari jamiyatimiz tarqqiyotini ta'minlaydi hamda o'zlarining farovon turmushini belgilab beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura 1-jild. T., 1996.
2. Karimov I.A. Asarlar 12 jild.T., 1996-2005.
3. Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat. T., 1994.
4. Karimov I.A. Ma’naviy yuksalish yo‘lida. T., 1998.
5. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir (Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning Qo‘shma majlisidagi ma’ruza). T., 2005.

Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jild. T., 1997-2003.
2. Ma’naviyat va komillik. T., 1997.
3. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. T., 2006.
4. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimizning takomil bosqichlari. T., 1996.
5. Komilov N. Tasavvuf. 1-2 kitob., T. 1996-1999.
6. Komilov N. Komil inson haqida 4 risola, T., 1997.
7. Saidov U. Yevropa Ma’rifatchiligi va Milliy Uyg‘onish – T., 2004.
8. Ibroximov A, Sultonov H, Jo‘raev N. Vatan tuyg‘usi. T., 1996.
9. Milliy istiqlolg‘oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. T., 2000.
10. Abilov O‘. Milliyg‘oy. Ma’naviy omillar. T.1999.
11. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. T., 1998.
12. Jaloliddin Rumi. Masnaviyi ma’naviy. T., 1999.
13. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonunning yangi tahriri. T., 1998.
14. Husniddinov Z. Islom: yo‘nalishlar, mazhablar, aqidalar, T., 2000.
15. Munavvarov Z va boshqalar. Dunyoviy davlat va din. T., 1998.
16. Bobomurodov A. Islom odobi va madaniyati. T., 1995.
17. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. T., 1996.

18. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T., 1994.
19. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. T., 1998.
20. Jumaboev Y. O'rta Osiyo etikasi tarixi ocherklari, T., 1980.

Elektron ta'lim resurslari:

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. www. Ziyonet. uz
3. www. edu. uz
4. www. ma'naviyat. uz
5. www. google.uz
6. [www.gov.uz.](http://www.gov.uz)